

9-dars

Darsning mavzusi: Undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlarning talaffuzi va imlosi

Darsning ta’limiy maqsadi: o‘quvchilarning unli va undosh harflarningo‘ziga xos xususiyatlari, jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; undoshlari yonma-yon kelgan so‘zlar talaffuzi va imlosi, so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish va ko‘chirishni, so‘zlarni bo‘g‘in-tovush va tovush-harf jihatidan tahlil qilishni bilish; talaffuz me’yorlariga rioya qila olish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o‘quvchilarda ona tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, komil insonning fazilatlarini tushuntirish; o‘z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko‘nikmasini shakllantirish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunib, o‘zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga vao‘rtoqlariga yordam berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish; talaffuz me’yorlariga, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda, o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo‘llay olish.

Darsning turi: o‘tilganlarni mustahkamlash darsi

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, “*Kim chaqqon?*” ta’limiy o‘yini.

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, so‘zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma’naviyat daqiqasi.

II.O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshiriladi. O'quvchilarning "Mening oila a'zolarim" mavzusidagi yozgan hikoyalari tinglanadi, baholanadi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar ham beriladi:

- *Tuzgan matningiz nechta gapdan iborat bo'ldi?*
- *Unda tutuq belgili so'zlardan ishtirok etdimi?*
- *Tutuq belgili so'zlar talaffuzi haqida so'zlab bering.*

III. Mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Kichik "m" harfi uch unsuridan: kichik to'g'ri tayoqcha, uchi ilmoqli kichik tayoqcha va tagi ham usti ham ilmoqli kichik tayoqchadan iborat bo'lib, bir butun shaklda yoziladi.

Daftarga bir qator kichik "m" harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: maktab, maqol, matal, meva, mehr, mustaqil.

O'tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida 51 va 52-mashqlar og'zaki bajariladi. Test topshiriqlari bajartiriladi.

Testlar javobi:

1. Nuqtalaro'rniiga undosh harflardan mosini tanlang.

Do's.., avgus.., xa..., juf..

To'g'ri javob: D) t

2. Bir xil undoshlar yonma-yon kelgan so'zlar qatorini tanlang.

To'g'ri javob: D) Rassom, jarroh, xokkey

3. Har xil undoshlar yonma-yon kelgan so'zlar qatorini topping.

To'g'ri javob: C) Barg, band, go'sht

4. Qaysi so'zlarni talaffuz qilsak, so'z oxiridagi tovush tushib qoladi?

To'g'ri javob: A) Toshkent, poytaxt, baland

O'quvchilar bilan 53-mashq guruhlarda ishlanadi. Bunda "Kim chaqqon?" ta'limiy o'yinidan foydalaniladi.

Birinchi guruh: *Do'st so'zini tashlama,*

Tashlab, boshing qashlama.

Ikkinci guruh: *Aql ulug'likka etadi payvand,*

Aqlsizning doim oyog'ida pand.

Uchinchi guruh: *Do'stlik barcha boylikdan afzal.*

To'rtinchi guruh: *Harchando'qibsan-bilimdonsan,*

Agar amal qilmading, nodonsan.

Har bir guruh o'zlariga berilgan maqol va hikmatli so'zlarning talaffuzi va yozilishi haqida ma'lumot beradilar. Ularning talaffuzi va imlosidagi farqlarni taqqoslaydilar.

IV. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunidao'quvchilar joriy darsdao'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgano'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

54-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOETISHUCHUNEMAS!